

Qashqadaryo VTXQTMOI tabiiy va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
R. Jumayeva

Geografiya fanidan test savollari
5-sinf 1-v

1. Yer yuzasidagi biror nuqtaning boshqa nuqtadan tik balandligiga nima deb ataladi?
A) Nisbiy balandlik B) Relyef C) Mutloq balandlik D) A va B
2. Yer yuzasidagi barcha notekisliklar geografiya fanida nima deyiladi?
A) Xarita B) Relyef C) Nisbiy balandlik D) Mutloq balandlik
3. O'zbekistondagi eng baland nuqtasi- Hazrati Sulton tog'ining balandligi necha metrni tashkil etadi?
A) 2267 m B) 6671 m C) 4643 m D) 3019 m
4. Havo bosimi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiradigan chiziqlar nima deyiladi?
A) Izoterma B) Xarita C) Izobara D) Relyef
5. Yerning havo qobig'ini toping?
A) Atmosfera B) Gidrosfera C) Litosfera D) Biosfera
6. Yadro harorati necha gradusni tashkil etadi?
A) 4000°C B) 2500°C C) 3500°C D) 4500°C
7. Quyidagi variantlardan otqindi jinslarni belgilang?
A) Granit B) Bazalt C) Ohaktosh D) A va B
8. Havo harorati o'xshash nuqtalarni tutashtiradigan chiziqlarga nima deb ataladi?
A) Izoterma B) Xarita C) Izobara D) Relyef
9. Quruqlik yuzasidagi mutlaq balandligi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlarga nima deb ataladi?
A) Gorizontalalar B) Relyef C) Nisbiy baladlik D) Relyef
10. Nisbiy balandlikni nima yordamida aniqlanadi?
A) Nivelir B) Kompas C) Metr D) Ruletka

Javobi yoziladigan testlar

11. Geografiya atamasini birinchi bo'lib **fanga** kiritgan.
12. Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofaga teng.
13. Quyoshga eng yaqin va eng uzoq sayyora bu
14. Shimoliy qutb bilan Janubiy qutbni tutashtiruvchi Yer yuzasidan o'tkazilgan yarim aylana chiziqlardeyiladi.
15. Quyosh ikkala yarim sharni kunlari bir xilda yoritadi?

5-sinf 1-v

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
C	B	C	C	A	A	D	A	A	A

11.Erotosfen

12,150 mln km

13.Merkuriy va Neptun

14. Meridianlar

15.21 mart, 23 sentabr.

2-variant

1. Geografiya terminini fanga kim kiritgan?

A. Ulug'bek B. Erotosfen C. Ibn Sino D. Beruniy

2. Geografiya fani necha asosiy yo'nalishga bo'linadi?

A. Tabiiy, siyosiy B. Iqtisodiy C. Ijtimoiy D. Tabiiy, iqtisodiy

3. Dunyoning birinchi kartasini kim tuzgan?

A. Erotosfen. B. Bobur. C. Ulug'bek D. Ptolemey

4. Quyosh nuri yerga qancha vaqtda yetib keladi?

A. 8,5 minutda. B. 10 minutda C. 15 minutda D. 20 minutda

5. Dunyodagi eng katta globuslardan biri O'zbekistonning qaysi oliy o'quv yurti Universitetida o'rnatilgan?

A. Farg'ona B. Samarqand C. Andijon. D. Toshkent

6. Dunyoni g'arbdan sharqqa birinchi aylanib chiqqan sayyoh kim?

A. F. Magellan B. X. Kolumb C. Beruniy D. M. Qoshg'ariy

7. Ufqning nechta qanday asosiy tomonlari bor?

A. Shimol, janub. B. G'arb, sharq. C. A va B D. Shimol, janub

8. Masshtablar necha xil ko'rinishda bo'ladi?

A. Sonli, nomli. B. Nomli, chiziqli. C. Chiziqli, sonli. D. Nomli, chiziqli, sonli

9. O'zbekistonning eng baland nuqtasi qaysi cho'qqi?

A. Hazrati Sulton. B. Tirichmir. C. G'alaba. D. Jomolungma.

10. Quyosh Yerdan necha marta katta?

A. 1mln 500ming marta. B. 1mln 300 ming. C. 1mln 40 ming D. 1mln 600 ming marta

Javobi yoziladigan test.

11. Yerning havo qobig'i deb ataladi?

12. Yerning qattiq tosh qobig'i bu deb ataladi?

13. Yerning suv qobig'i bu deb ataladi?

14. Yerning hayot qobig'i bu deb ataladi?

15. Yer qimirlash kuchini aniqlaydigan asbob bu

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	D	A	A	D	A	C	D	A	B

11. Atmosfera

12. Litosfera

13. Gidrosfera

14. Biosfera

15. Seysmograf

6- sinf 1-v

1. **Dunyo okeanining umumiy maydoni qancha?**
A) 361 mln.km.kv; C) 149 mln.km.kv;
B) 180 mln.km.kv; D) 510 mln.km.kv.
2. **Dunyo okeani atamasini fanga qachon,qaysi olim kiritgan ?**
A) 1917-yil Y.M.Shokaliskiy; C) 1520-yil F.Magellan;
B) 1492-yil X. Kolumb; D) 1960-yil J.Pikar.
3. **Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi okeandan boshlangan ?**
A) Hind C) Tinch;B) Atlantika;; D) Shimoliy Muz okeani.
4. **Dunyo okeanida jami nechta dengiz ajratilgan ?**
A) 56 ta; B) 67 ta; C) 75 ta; D) 33 ta.
5. **Eng ko'p dengizlar qaysi okeanda joylashgan ?**
A) Tinch; C) Atlantika;
B) Hind; D) Shimoliy Muz okeani.
6. **A. Vegener fikricha bundan 200 mln yil avval qanday materik va okean bo'lganini ayting.**
A) Gondvana va Tetis; C) Yevrosiyo va Paleotind;
B) Lavraziya va tinch okeani; D) Pangeya va Pantalassa.
7. **Bering, Oxota, Yapon,Sariq, Sharqiy Xitoy dengizlari qaysi okeanga tegishli.**
A) Atlantika; B) Hind C) Tinch; D) SHimoliy Muz okeani.
8. **Tayfun shamollarining tezligi eng ko'pi bilan soatiga necha km gacha boradi.**
A) 30 km/ s; B) 50 km/s; C) 70 km/s; D) 100km/s.
9. **Kurosio oqimi qaysi okeanda vujudga keladi ?**
A) Hind okeani; C) Tinch okeani;
B) Shimoliy Muz okeani; D) Atlantika okeani.
10. **Tinch okeanining umumiy maydoni qancha ?**
A) 361 mln.km.kv; C) 149 mln.km.kv;
B) 180 mln.km.kv; D) 510 mln.km.kv.

Javobi yoziladigan testlar

11. **1960-yil “Triyest ” batiskafida qaysi okean botig'i aniqlangan ?**
Javob:_____
12. **Hozir Dunyo okeanida qancha hayvon va o'simlik turi mavjud?**
Javob:_____
13. **Nektonlar qanday organizmlar ?**
Javob:_____
14. **Hozir Dunyo okeani sohilida qancha dengiz port-shaharlar mavjud ?**
Javob:_____
15. **Dengiz turizmidan olinadigan daromad qancha dollarni tashkil etadi?**

Javob:_____

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	A	B.	B	A	D	C	D	C	B

- 11. Mariana
- 12. 160ming,10ming
- 13.Erkin harakatlanuvchi organizmlar
- 14. 2700ta
- 15.220 mlrd

6-sinf 2-v

1. Afrika materigi dastlab qanday nom bilan atalgan?
A) Gaffarel B) Liviya C) Viktoriya D) Nil
2. Qaysi okeanning umumiy maydoni 76 mln km² ni tashkil etadi?
A) Tinch; B) Hind; C) Shimoliy Muz okeani D) Atlantika.
3. Qizil dengizning suvini sho'rligi qanchaga teng?
A) 35 ‰ ; B) 38 ‰ ; C) 45 ‰ ; D) 36 ‰
4. Oq ,Barens,Norvegiya dengizlari qaysi okeanga tegishli?
A) Tinch; B) Hind; C)Shimoliy Muz okeani D) Atlantika.
5. Afgrika materigi Yevropa bilan qaysi bo'g'oz orqali ajralib turadi?
A) Suvayish B) Gibraltar C) Bering D) A va B
6. Sharqiy Afrika yer yorig'i necha km masofaga cho'zilgan?
A) 6500 km B) 7100 km C) 4500 km D) 8000 km
7. Afrika materigining eng baland cho'qqisini toping?
A) Assal ko'li B) Kilimanjaro vulkani C) Axaggar D) A va B
8. Konga daryosining umumiy uzunligi necha kilometrni tashkil etadi?
A) 6671 km; B) 4320 km; C) 3691 km D) 1800 km.
9. Afrika materigi maydonining 40 % ini nimalar egallaydi?
A) Savannalar B) Dashtlar C) O'rmonlar D) Cho'llar
10. Afrika materigining siyosiy xaritasida nechidan ortiq davlatlar bor?
A) 45 ta B) 50 ta C) 60 ta D) 39 ta

Javobi yoziladigan testlar:

11. Afrika materigining qaysi tabiat zonasi ikki marta takrorlanmaydi?
12. Noyob velvichiya o'simligi qaysi cho'l uchun xos?
i
13. Afrika materigining qancha foizini savannalar egallaydi?
14. Qaysi davlat maydonining 10 % ini milliy bog'lar egallaydi?
15. Afrika materigida nechta milliy bog' bor?

6(2v)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	B	C	C	B	A	B	B	A	B

11.Ekvatorial o'rmonlar

12.Namib cho'li

13.40%

14.Keniya

15.392ta

7- sinf 1-variant

1. O'rta Osiyo geografiyasiga kim asos solgan?
A. Erotosfen. B. Xorazmiy. C. Beruniy. D. Inb Sino
2. O'rta Osiyoni alohida tabiiy o'lka sifatida ajratishga asos bo'ladigan nechta xususiyati bor?
A. 6ta B. 5ta C. 10ta D. 8ta.
3. O'rta Osiyo ekvator va bosh meridianga nisbatan qanday joylashgan?
A. Shimolda, sharqda. B. Janubda, sharqda . C. Shimolda, g'arbda.
D.janubda,g'arbda.
4. O'rta Osiyoning shimoliy nuqtasi qayerdan o'tadi?
A. Tubqarag'ay. B. Qora Irtish. C. Ayrtoy. D. Xarirud.
5. O'rta Osiyoning janubiy nuqtasi qayerdan o'tadi?
A. Xarirud. B. Qora Irtish. C. Ayrtoy . D. Tubqarag'ay.
6. O'rta Osiyoning g'arbiy nuqtasi qayerdan o'tadi?
A. Tubqarag'ay. B. Qora Irtish. C. Ayrtoy. D. Xarirud.
7. O'rta Osiyoning sharqiy nuqtasi qayerdan o'tadi?
A. Ayrtoy. B. Qora Irtish. C. Tubqarag'ay. D. Xarirud.
8. O'rta Osiyoning aholisi qancha?
A. 50mln kishi B. 70 mln kishi. C. 63mln kishi. D. 30 mln kishi.
9. O'rta Osiyoda eng ko'p sonli millat qaysi?
A. o'zbek. B. qozoq. C. Qirg'iz. D. Turkman.
10. Atlas atamasini fanga kim kiritgan?
A. Beruniy. B. Merkator. C. Ptolemey. D. Xorazmiy.
- .
- 11.O'rta Osiyoning yirik cho'llari,
12. Taqvim deb aytiladi.
13. Geologik sana yirik bosqich-,, bo'linadi.
14. Termik depressiya vujudga keladi.
15. O'rta Osiyodaiqlim mintaqalari mavjud.

7(1v)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	D	A	C	A	A	B	B	A	B

11.Qoraqum, Qizilqum

12.Uzoq vaqt hisoblab borilgan vaqt hisobi

13.Ionlar, eralar, davrlar

14. Past bosimli hudud

15.Mo'tadil va subtropik

7-sinf 2-variant

1. Mavsumiy qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar guruhini aniqlang?
A) Tajan, Atrek, G'uzordaryo; C) Sheraboddaryo, Sarisuv
B) Nura, To'rg'ay; D) barcha javoblar to'g'ri
2. O'rta Osiyoning tektonik ko'llarini belgilang?
A) Orol va Balxash; C) Issiqko'l va Qorako'l;
B) Orol va Aydarko'l D) A va B javoblar
3. O'rta Osiyoning eng yirik suv omborlarini belgilang?
A) Buxtarma va Qopchig'ay; C) To'xtag'ul va Chordara;
B) Tuyamo'yin va Qayroqqum; D) barcha javoblar to'g'ri.
4. Uzoq vaqt hisoblab boriladigan sana tizimiga nima deb ataladi?
A) Kalendar; B) Vaqt; C) Soat; D) Yil hisobi.
5. Hindiqush tog'idagi Tirichmir cho'qqisining eng baland nuyqtasi necha metrni tashkil etadi?
A) 6671 m; B) 7690 m; C) 7495 m; D) 7439 m.
6. Tuproqlarning tarkibi, asosan, necha qismdan iborat?
A) 3 ta; B) 4 ta; C) 5 ta; D) 6 ta.
7. O'rta Osiyoning tekisliklarida qanchaga yaqin o'simlik turi tarqalgan?
A) 9000 ga, B) 1000 ga; C) 8000 ga D) A va B
8. O'rta Osiyoning qaysi daryosining uzunligi 2540 kmni tashkil etadi?
A) Amudaryo; B) Sirdaryo; C) Ili; D) Qashqadaryo.
9. Ili daryosi o'z suvini qaysi ko'lga borib quyadi?
A) Orol ko'li; B) Balxash; C) Qopchig'ay D) Aydarko'l
10. O'rta Osiyo hududi nechta kichik o'lkalarga ajratiladi?
A) 2 ta; B) 3 ta; C) 4 ta; D) 6 ta;

Javobi yoziladigan testlar

11. Kattaqo'rg'on va Quyimozor suv ombori qaysi daryoda bunyod etilgan?
12. Ili daryosi o'z suvini qaysi ko'lga quyadi?
13. "Orolbo'yi" deb ataluvchi mintaqada hozirgi kunda qancha aholi yashaydi?
14. Quyida qaysi daryoning uzunligi berilgan? (1384 km)

15.Chordara va Norak suv omborlari qaysi daryolarga qurilgan?

7(2v)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
D	D	D	A	B	A	A	A	B	A

11.Zarafshon daryosi

12.Balxash ko'li

13.5mln

14.Ili daryosi

15.Sirdaryo va Vaxsh

8 sinf 1-v

1. Qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish va uni iste'molchiga yetkazish jarayonida aloqador barcha tarmoqlar uyg'unligi nima deb ataladi?
A) ASM; B) Majmua; C) Iqtisoslashuv D) Sanoat
2. Qishloq xo'jaligining fan texnika yutuqlari negizida tubdan o'zgarishiga nima deb ataladi?
A) ASM; B) Majmua; C) Yashil inqilob D) Sanoat
3. Sutkalik o'rtacha harorat +5 darajadan kam bo'lmagan kunlarga biz nima deb ataymiz?
A) Majmua; B) Vegetatsiya davri; C) Sanoat D) ASM
4. Tasarrufida xo'jalik maqsadlarida foydalina oladigan yeri bo'lgan, ziroatchilik, chorvachilik huquqiga ega bo'lgan korxona qanday xo'jalikni tashkil etadi?
A) Qishloq xo'jalik korxonasi C) Fermer xo'jaligi;
B) Dehqon xo'jaligi; D) Oila xo'jaligi.
5. Respublikamizda barcha texnik ekinlar maydonlari necha foizni egallaydi?
A) 100 % I; B) 97 % I; C) 85 % I; D) 65 % I.
6. Yaip sanoat mahsulotining hajmida binokorlik salmog'i necha foizni tashkil etadi?
A) 5 % I; B) 15 % I; C) 25 % I; D) 35 % I.
7. Yurtimizda topilgan nechta marmar koni bor?
A) 15 ta; B) 30 ta; C) 34 ta; D) 45 ta.
8. Respublikamizda eng yirik sement kombinatlarini aniqlang?
A) Navoiy; B) Ohangaron; C) Bekobod D) A va B
9. "Sanoat terakchiligini rivojlantirish va boshqa tez o'suvchi yog'ochbop daraxtlarni barpo etishga oid chora -tadbirlar tog'risida " Vazirlar Mahkamasining qarori nechanchi yilda chop etildi?
A) 1994-yil 8-fevral; C) 2006-yil 10 -oktabr
B) 1994 yil 2-mart; D) 1992 -yil 8-dekabr
10. Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi nechanchi yilda tashkil topdi?
A)1940- yil; B) 1950- yil C) 1941-yil; D)1966-yil

Javobi yoziladigan testlar.

11. Yevrosiyoda mashhur bo'lgan O'zbekistondagi eng katta oltin koni qaysi?

12. O'zbekistonda yiliga qancha neft va gaz kondensati qazib chiqarilmoqda?
Javob: _____
13. Kimyo va neft kimyo mashinasozligi yirik korxonasi ("O'zbekkimyomash") qaysi shaharda joylashgan?

14. To'qimachilik sanoati mashinalari ishlab chiqaradigan asosiy markazlar Respublikamizning qaysi shaharlarida joylashgan?

15. Yalpi sanoat mahsuloti hajmida rangli metallurgiyaning salmog'i necha foizni tashkil etadi?
Javob: _____

8(1V)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	C	B	A	B	A	C	D	A	C

11.Muruntov

12.5-6 mlnt

13.Chirchiq shahri

14.Toshkent va Qo'qon

15.15%

8-sinf 2-v

1. Irrigatsiya mashinasozligining markazi qaysi shaharda joylashgan?
A. Andijon. B. Buxoro. C. Samarqand. D. Qarshi.
2. O'zbek-Isroil qo'shma korxonasi qachon paxta teradigan mashinalar modelini yaratdi?
A. 1990- yil. B. 1992- yil. C. 1994-yil. D. 2000-yil.
3. Respublikamizdagi yagona lift zavodi qaysi viloyatda joylashgan?
A. Samarqand. B. Andijon. C. Farg'ona. D. Qashqadaryo.
4. Ekskavator zavodi qayerda joylashgan?
A. Toshkent. B. Andijon. C. Farg'ona. D. Qashqadaryo.
5. Yengil avtomobellar ishlab chiqaradigan zavod qayerda joylashgan?
A. Toshkent. B. Andijon. C. Farg'ona. D. Asaka.
6. Respublikamizda ishchi kuchlarning necha %i qishloq xo'jaligida band?
A. 12,8 %. B. 26,7 %. C. 33,5 %. D. 30 %.
7. Yagona tamaka yetishtiradigan tumanni belgilang?
A. Denov. B. Urgut. C. Angren. D. Bo'stonliq?
8. Tog' – yaylov chorvachiligi qaysi viloyatlarda tarqalgan?
A. Surxondaryo, Samarqand, Toshkent. B. Buxoro, Jizzax, Navoiy.
C. Qashqadaryo, Xorazm, Jizzax. D. Navoiy, Xorazm, Sirdaryo.
9. Kanop yetishtirishda, uni qayta ishlashda yetakchi viloyat qaysi?
A. Toshkent. B. Andijon. C. Farg'ona. D. Qashqadaryo.
10. O'zbekiston aholisining necha %i qishloqlarda yashaydi?
A. 50%. B. 49%. C. 64%. D. 36 %.
11. O'zbekistondagi millioner shahar
12. Bitta atom reaktorining ichki devori..... .. qoplanadi.
13. O'zbekistonda 1993 yildanrusumli samolyot ishlab chiqarilmoqda.
14. Toshkent shahridan 74km shimoli-sharqda joylashgan.
15. O'zbekistonda bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashganxo'jaliklar bor.

8(2v)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	C	A	A	D	B	B	A	A	B

11.Toshkent

12.16kg

13.II-114

14.Urkutsoy marmarkoni

15.50dan ortiq

9- sinf 1-v

1. Yevropa mamlakatlarida oltingugurt asosan qaysi davlatlardan qazib olinadi?
A) Italiya; B) Ukraina; C) Polsha; D) A va B
2. Hozirgi xalqaro turizimda ishtirok etadigan kishilar soni qanchaga teng?
A) 900 mln.kishi B) 25 mln kishi; C) 36 mln kishi D) 850 mln kishi
3. Yevropa mamlakatlarida yonuvchi slaneslar asosan qaysi davlatdan olinadi?
A) Polsha; B) Germaniya; C) Estoniya; D) Ukraina
4. Soatiga 280-350 km tezlik bilan harakat qiluvchi poyezdlari bilan mashxur davlatlar qaysilar?
A) GFR; B) Fransiya; C) Yaponiya; D) A va C
5. Yevropaning toshko'mir yirik konlari qaysi davlatlarda joylashgan?
A) GFR; B) Buyuk Biritaniya; C) Ukraina D) Barchasi.
6. Dengiz bo'g'ozlari orasida eng yirik bo'g'ozni aniqlang?
A) La-Mansh B) Gibraltar; C) Xormuz; D) Malakka.
7. Yevropa mamlakatlarining siyosiy xaritasida nechta mamlakat bor?
A) 40 ta; B) 46 ta; C) 50 ta; D) 55 ta;
8. Jahon chorvachiligining tarmog'i bo'lgan bug'uchilik asosan qaysi davlatlarda yo'lga quyilgan?
A) Rossiya; B) Kanada; C) AQSH D) A va B
9. Yevropada jahonning yetakchi bank-moliya markazi qayirda joylashgan?
A) Londonda; B) AQSDa; C) Ukrainada; D) GFR
10. Jahonda makkajo'xori yetishtirishda birinchi o'rinda turuvchi davlatni aniqlang?
A) Rossiya; B) Kanada; C) AQSDa; D) Ukrainada;

Javobi yoziladigan test:

11. Ko'mirning eksportdagi hissasi qancha foizni tashkil etadi?

Javob:

12. Jahon yoqilg'i energetikasi balansida qaysi yoqilg'ining ulushi 22 % ni tashkil etadi?

Javob: _

13. Bugungi kunda YeI (Yevropa Ittifoqi) tashkiloti tarkibida nechta davlat faoliyat ko'rsatmoqda?

Javob: _____

14. Tabiiy gaz zahiralar hajmiga ko'ra jahonda qaysi davlatlar yetakchilik qiladi?

Javob: _____

15. Demografik o'tish davri, dastavval, Yer yuzining qaysi qismida, qachon ro'y bergan?

Javob: _

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
D	A	C	D	D	A	B	D	A	C

11.10%

12.Gaz sanoatida

13.28ta davlat

14.Rossiya,Eron, Qatar, Turkmaniston

15Yevropada XVIII asrda

9-sinf 2-variant

1. Demografik o'tish jarayonining ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish, tug'ilish va o'limning qisqarishi natijasida tabiiy o'sishning kamayishi bilan ifodalanuvchi bosqichi qaysi davlatlar uchun xos ?
A) Fransiya, Yaponiya, Xitoy;
B) AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya;
C) Xitoy, Birma, Eron, O'zbekiston;
D) Fransiya, Xitoy, Braziliya, Meksika.
2. Dunyonda aholisining soni eng yuqori su'ratlar bilan o'siyotgan davlatni aniqlang.
A) Meksika; B) Keniya; C) Braziliya; D) Turkiya.
3. Dunyo aholisining necha foizi shaharlarda yashaydi (2012-yil)?
A) 38 % ; B) 51,7 % ; C) 42 % ; D) 48,7 %.
4. Jahondagi eng katta aglomeratsiyaga ega bo'lgan shaharlarni aniqlang.
A) Tokio, Pekin, Dehli, London, Toshkent;
B) Anqara, Tehron, bobbay, Mexiko, Tokio;
C) Mexiko, Tokio, San-Paulo, Nyu-York, Kolkata;
D) Almati, Mexiko, Kolkata, Sofiya, Tirana, Riga.
5. Islom diniga e'tiqot qiluvchilar soniga ko'ra ustun bo'lgan hududlarni belgilang.
A) Janubiy Osiyo; C) Sharqiy Osiyo;
B) Janubiy Afrika; D) Janubi- G'arbiy Osiyo.
6. " Millioner " shaharlari ko'p bo'lgan mamlakatni belgilang.
A) Meksika; B) Liviya; C) Xitoy; D) O'zbekiston.
7. Robot- texnikaning katta miqdori qaysi davlatlarga to'g'ri keladi ?
A) B.Britaniya, Yaponiya, Indoneziya, Xitoy;
B) Kanada, Yaponiya, Indoneziya, Xitoy.
C) Yaponiya, Ukraina, AQSH, B.Britaniya;
D) AQSH, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Fransiya.
8. Jahondagi aholisi eng ko'p shahar qaysi?
A) Tokio; B) Mexiko; C) London; D) Nyu-York.
9. Osiyo mamlakatlaridan qaysi birida aholining hayot darajasi yuqori hisoblanadi ?
A) Birlashgan Arab Amirliklari; C) Hindiston; B) Xitoy; D) Eron.
10. Aholi zichligi eng yuqori bo'lgan hududni ajrating?
A) Yevropa; C) Osiyo;
B) Avstraliya va Okeaniya; D) Shimoliy Amerika.

Javobi yoziladigan testlar

11. Gaz sanoatining jahon YoEB dagi hissasi necha foizni tashkil etadi?

Javob: _____

12. Jahonda neftga eng boy hudud qayerda

joylashgan? Javob: _____

13. Dunyoda mavjud yirik shaharlarning necha foizi dengiz sohillarida joylashgan?

Javob: _____

14. Jahonda yiliga qazib olinadigan temirning miqdori qancha?

Javob: _____

15. Jahon qishloq xo'jaligida qancha aholi band?

Javob: _____

9(2v)

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	B	B	C	D	C	D	A	A	C

11.22%

12.Fors qo'ltig'ida

13.40%

14.1mlrd t

15.1,2 mlrd kishi